



BOG‘ANALI TOPONIMIGA IZOH


Tuqsanova Shalola G‘olib qizi
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti talabasi,
Ilmiy rahbar: dots. Yusupova O.

Annotatsiya: *Yurtimizda joy nomlarini o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor o‘tgan asrning 60-70 yillariga kelib ko‘chaydi. Hozirgi kunga qadar toponimika bo‘yicha 30 dan ortiq tadqiqodlar amalga oshirildi. Bu mavzu yuzasidan bir nechta kitoblar, monografiyalar, uslubiy qo‘llanmalar yaratildi. Toponomika bo‘yicha shuncha ishlar qilinganiga qaramay yurtimizda hali o‘rganilmagan joy nomlari ham anchagina. Maqolada ana shunday joy nomlaridan biri bo‘lgan Past Darg‘om hududida joylashgan Bog‘anali toponimi izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *Bog‘anali, bog‘, toponimika, urug‘, Bag‘anali, etnotoponim*

Samarqand viloyati Past Darg‘om tumanida 1979-yilda Bog‘anali mahallasi tashkil etilgan bo‘lib, bu mahalla hozirgi kunda ikkiga, Bog‘anali va Yuqori Bog‘anali mahallalariga ajratilgan. Bu ikki mahallada jami besh yarim mingdan ziyod aholi istiqomat qilishiga qaramay, bu yerning odamlari mahalla nima uchun bunday nomlanishini asl sababini bilishmaydi. Mahallaga Bog‘anali nomining berilishi haqida jamoatchilik orasida faqatgina 2 xil rivoyat mavjud holos. Aholidan qishloq nomi haqida so‘ralganda ko‘pchiligi quyidagi rivoyatni aytishadi: Qadimda qishloqda Ali ismli shaxs bo‘lgan va u kishining juda katta bog‘i bo‘lgan. Shuning uchun bu yerning nomini Bog‘anali, Alining bog‘lari, deya talqin qilishadi. Qishloq aholisi o‘rtasida shunday rivoyat yursa-da, bu rivoyat haqiqatdan uzoq tuyiladi. Chunki Bog‘anali toponimi faqat shu yerda emas respublikamizning boshqa hududlarida ham uchraydi. S. Qorayevning toponimiyaga oid ma‘lumotlariga ko‘ra respublikamiz toponimiyasi tarkibida Bog‘anali etnonimi shahar va qishloqlarning nomlari tarkibida 5 dan 10 martagacha takrorlanadi.[1.-B.56.] Ba‘zi joylarda bu terminni Bag‘anali tarzida ham qo‘llashadi. 2022- yil nashr etilgan “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”da Bag‘anali nomi mavjud hududlar quyidagicha sanab o‘tilgan: Bag‘anali-qishloq. Jizzax viloyati G‘allaorol va Forish tumani; Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Past Darg‘om tumanlari; Qorabag‘anali- Jizzax viloyati Forish tumani[3.-B.54]

Bog‘anali so‘zidagi bog‘ so‘zini ko‘pchilik faqat mevazor ma‘nosida tushinadi va yuqoridagi rivoyatni haqiqat deya bilishadi. Lekin bu so‘zning boshqa ma‘nolari ham bor. Toponimning birinchi qismi bog‘ so‘zining mevazor ma‘nosidan tashqari bir qancha



ma'nolari bor: bog', yer, to'p, jamlik, atrofi o'ralgan maydon xalq, qabila kabilar.[4.-B.33] Bog' so'zi semantik jihatdan to'por, to'p terminiga yaqin. U ham "to'p, bog'lam" ma'nosini anglatgan. Shu sababli ham qadimda "to'qson ikki bo'li o'zbek deb atalgan. Bu bilan o'zbeklarning 92 bo'li (bog')iga, bo'lagiga ishora qilingan.[2.-B.55]

Qishloq ahli orasida mavjud bo'lgan ikkinchi rivoyatga ko'ra, nayman qabilasining sardori Teshn umrining oxirida o'z yerlarini va qabilasini ikki o'g'li, Bog'anali va Boltaliga, vasiyat qilib qoldiradi. Boltali bilan o'z yerlariga ko'chib ketgan naymanlar Boltali naymanlari, Bog'anali bilan qolganlari esa Bog'anali naymanlari deb atalgan. Bu rivoyatni tahlil qilib ko'rsak haqiqatga yaqinligi ayon bo'ladi. Bag'anali etnonimi qoraqalpoq qabilasining qipchoq, qozoq qabilasining argin va nayman, o'zbek qabilasining yuz tarkibida qayd etilgan.[3.-B.54] Ijtimoiy tarmoqdan ham quyidagicha ma'lumotni olish mumkin: O'zbek naymanlari XIX asr oxirida 3 ta yirik urug'ga bo'lingan: qo'shtamg'ali, sadirbegi, uvoxtamg'ali. Bulardan tashqari naymanlarda urug' bo'limlari ham mavjud bo'lgan: agron, ayronchi, badir, biya, bog'anali, boltali va boshqalar.

Bu ma'lumotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, Bog'anali bu nayman urug'ining bir bo'g'inidir. Past Darg'om tumanidagi Bog'anali va Yuqori Bog'anali mahallalarida yashayotgan aholining tub qismi aynan shu urug'ga mansubdir. Uzoq yillardan beri bu urug' vakillari shu yerda yashab kelishadi va urug' nomi hozirga qadar etnotoponim sifatida saqlanib qolgan. Bu yer aholisi o'zlarini nayman urug'iga borib taqalishini bilsalar-da, oradan yillar o'tib nayman urug'ining bog'anali tipiga mansubligini yoddan chiqarishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduvaliyeva. K. "Shajarayi turk" asaridagi etnonimlarning hozirgi O'zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi// Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim 12,2024
2. Kilichev. B. Onomastika fanidan mustaqil ta'lim uchun materiallar.-Buxoro, 2022
3. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati.- Toshkent: Donishmand ziyo, 2022
4. Дўсимов. З., Эгамов. Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати.-Тошкент: ўқитувчи, 1997
5. www.wikipedia.uz